

hamda odobi, avlodlar tajribasi asosida ustoz va murabbiylar ota-onalar nazorati ostida shakllanib boradi. Shunday ekan biz pedagoglar ta'lim jarayonida tarbiyaning ham uzviyigini ta'minlagan holda talaba-yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish usul vasitalarini o'rgatib borishimiz va ularga to'g'ri yo'lni ko'rsata olishimiz zarurdir. Zero, Oliy ta'lim muassasasining bosh maqsadlaridan biri ham-talaba-yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy, estetik, axloqiy dunyoqarashini kengaytirish, tafakkurini turli xil yot g'oyalalar ta'siridan himoya qilish hamda mustaqil O'zbekistonning chinakam fidoiy, vatanparvar shaxsi sifatida tarbiyalashdan iborat.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari. 2023- yil 13-bet.
2. Erkaboyev Oybek Muxammadjonovich, Mirzayeva Gavharoy Qosimjonovna talaba-yoshlarni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda zamonaviy uslublar mazmunijild. 21 №. 7 (2023): dunyoda ta'lim, fan va innovatsiya g'oyalari | Jurnalning 21-soni | 7-qism
3. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI.KADRALAR TAYYORLASH MILLIY DASTURI 2020-yil 23-sentabr.O'RQ-637-son
4. YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA TALABA-YOSHLAR TARBIYASIDAGI MUAMMO VA YECHIMLAR F. O. Xodjiyeva Z. B. O'tapov
5. Sharq allomalari va ma'rifatparvar adiblarining barkamol avlod tarbiyasiga oid ma'naviy-axloqiy qarashlari. G. Niyozov, Q. Axmedov, Q. Tojiboyev O'zbekiston 2010 yil.

### **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDА MEHNATGA IJOBIY MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH.**

**Mansurova Maftuna Komiljon qizi  
O'zbekiston, Navoiy innovatsiyalar universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar  
kafedrasi o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat tarbiyasini ta'limiy - tarbiyaviy faoliyatlar jarayonida qanday amalga oshirilishi haqida ma'lumotlar berilgan shu bilan birgalikda mehnat tarbiyasini oilada shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Mehnat tarbiyasi, maktabgacha ta'lim tashkiloti, ta'lim-tarbiyaviy faoliyat, mehnat tarbiyasining maqsadi, oilada mehnat tarbiyasini amalga oshirish, kattalar mehnatini qadrlash.

### **ФОРМИРОВАНИЕ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ОТНОШЕНИЯ К ТРУДУ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о том, как сформировать у дошкольников положительное отношение к труду, как реализовать трудовое воспитание в дошкольных образовательных организациях в процессе воспитательной деятельности, а также даны рекомендации по формированию трудового воспитания в семье. развитый.

**Ключевые слова:** Трудовое воспитание, организация дошкольного образования, воспитательная деятельность, цель трудового воспитания, реализация трудового воспитания в семье, ценение труда взрослых

## FORMING A POSITIVE ATTITUDE TO WORK IN PRESCHOOL CHILDREN

**Annotation:** In this state, information is presented on how to form a positive attitude of schoolchildren to work, how to implement labor education in school educational organizations and educational processes, as well as recommendations for the formation of labor education and education. development

**Keywords:** Labor education, organization of pre-school education, educational activities, purpose of labor education, implementation of labor education in the family, valuing the work of adults.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Mehnat tarbiyasi bolaning shaxsiyatini har tomonlama rivojlantiradi va qobilyatlarini shakllantiradi. Bolalarda mehnat tarbiyasini shakllantirishdan maqsad bu mehnatga nisbatan muhabbat uyg'otish, bajarilgan mehnatni qadriga yetish, mehnatkashlarga hurmat tuyg'ularini shakllantirishdan iborat. Biz bilamizki insonning mehnatga jalg qilinishi maktabgacha yoshdagi bolalikdan shakllanadi. Bunda bolalar mehnatning qanday tartibda bajarilishini oiladan, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilaridan o'rganmog'i lozim. Buning uchun oilada mehnat tarbiyasini o'rgatishda ota- ona na'muna, ta'lim tashkilotida tarbiyachi ko'makchi bo'lmoshni lozim.<sup>[1]</sup> Maktabgacha yoshdan boshlab har bir bola mehnatga jalg etilishi, oilada oddiy yoshiga mos vazifalarni bajarishi doimiy va kundalik rejimiga aylanishi kerak albatta. Birinchi navbatda bolalarga mehnatga bo'lgan hurmatni singdirish kerak, har bir ishni xohishiga ko'ra bajarishlari va har qanday ishda sifatga erishishga harakat qilishlari lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatsevarlikni shakllantirish uchun o'z oldiga maqsad qo'yishni, unga erishish yo'llarini izlashni va maqsadga muvofiq natijaga erishishni o'rgatish zarur. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarda mehnatga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun bajariladigan mehnatni tizimli ravishda amalga oshirish yo'llarini o'rgatish ham muhum ahamiyatga egadir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida kunning birinchi qismida bolalar tarbiyachi ko'magida mehnatni amalga oshiradi. Bu jarayonda mehnatni tashkil etish bo'yicha quyidagi mavzularni tavsiya qilish mumkin.

- Qumli maydonchadagi qumlarni yig'ish.
- Gulzordagi gullarni sug'orish.

- Yerga tushgan barglarni yig'ishtirish.
- Yo'lakchani supuramiz.
- O'yin maydonchasidagi novdalarni teramiz.
- Piyoz ekish mashg'uloti.
- Men qushlarga don berdim.
- Ekin maydonida sabzavotlar ekamiz.
- O'yin maydonchasini tozalaymiz.
- Jonli tabiat burchagida mehnat. Qushlar bizning do'stimiz.
- Sayr jarayoni yakunida o'yinchoqlarni yuvish.
- Jonli burchakda akvariumdagi baliqlarga ozuqa berish.
- Tabiat burchagidagi xona gullariga suv qo'yish.
- Tabiat burchagidagi gullarni sug'orish.
- Qush va jonzotlarga g'amxo'rlik qilish.
- Maydonchadagi ayvonchani barglardan tozalashga yordam berish.
- Maydonchadagi gulzorda gul ekishga tarbiyachiga yordam berish.
- Yozgi mavsumida maydonchani bezatishga tarbiyachiga yordam berish.
- Daraxtlarning qurigan shoxlarini qirqish.
- O'simlik va hayvonlarni parvarishlashni bilish.
- Kattalar yordamida akvarium va qafasni tozalash.
- Hayvonlarni ovqatlantirish.

Sayr jarayonida amalga oshiriladigan mehnatda tarbiyachi kuzatuvchi sifatida ishtirok etadi va uning mehnatini baholaydi.

Maktabgacha ta'lrim tashkilotlarida kattalar mehnati bilan tanishtirish alohida ahamiyatga egadir. Kattalar mehnati bilan tanishtirish jarayonida har bir yosh guruhidagi bolalar bir qancha bilim va tasavvurlarga ega bo'lmos'i lozim. O'zbek bolalar shoiri Quddus Muhammadiyning ijodiga nazar tashlasak mehnatga muhabbat mavzusi alohida o'rinn tutishini aytish mumkin. Shoiring "Bobomning mehnati", "Mirob", "Bu binoni kim qurban", "Madraim payvandchi", "Mamajon shafyor" kabi sherlarida mehnat simfoniyasi jaranglab turadi. Masalan "Etik" sheridan keltirilgan

Ko'p chiranma husningga,  
Rahmat deb qo'y bir marta  
Seni tikkan ustangga.

misralarida sherning qahramoni Solijon degan bola kichkintoy bo'lishiga qaramasdan etigini asrab avaylab kiyib yurishi unga gard yuqtirmasligi alohida ahamiyatga ega. Bu yerda mehnat ahlini sevish, ularning faoliyatlarini qadrlash uning tikilishi, sarf qilingan mehnatni yaxshi bilishi birinchi o'rinda tasvirlanadi.<sup>[2]</sup> Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatni amalga oshirishda ilk yosh guruhlarida tarbiyalanuvchilarni mehnat jarayonlari bilan tanishtirish, kattalar mehnatiga nisbatan hurmat qilish tuyg'usini shakllantirib boriladi.

Kichik yosh guruhlarida esa kattalarning mehnat qilishi natijasida ma'lum bir predmetlar yaratilishi, oshpaz, kir yuvuvchi, haydovchi, quruvchilarning mehnati va ularning ishlari haqida tushuncha berib boriladi.

O'rta guruhda bolalarni milliy hunarmandchilik mehnati - duradgorlik, bilan tanishtiriladi. Dehqon mehnati haqida ham ma'lumotlar berib boriladi.

Katta guruhda ishlab chiqarish korxonalari, qurilishlar, dalada amalga oshiriladigan mehnat haqida bilimlar mustahkamlanib boradi. Tarbiyalanuvchilarni tashkilot atrofida joylashgan olib borish, korxona nomi bilan tanishtirish, u yerda kimlar ishlashi, qanday mahsulotlar ishlab chiqariladi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning aholi uchun ahamiyati qanday ekani haqida bilimlari mustahkamlanadi. Aynan katta yosh guruqlarida tarbiyalanuvchilarni tikuvchi, mashinasoz, kosib, nonvoy, oshpaz, o'ymakor, haydovchi kabi kasblar bilan tanishtiriladi.

Maktabga tayyorlov guruqlarida tarbiyalanuvchilarni zargarlik, zardo'zilik, misgarlik, ganchkorlik kabi xalq hunarmandchiligi bilan tanishtirilib boriladi. Bundan tashqari dehqonchilik, chorvachilik haqida so'zlab berish va ularning mehnatining mazmuni nimadan iborat ekanligi tushuntiriladi.

Mehnat tarbiyasi yosh avlodni tarbiyalashda eng muhim tarbiya turlaridan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish va bu jarayonda tarbiyalanuvchilar o'z mehnatiga ijobiylar bajaradigan mehnatga nisbatan ehtiyojkorona munosabatda bo'lish, kattalarga har tomonlama yordam berish istagi shakllanib boradi. Mehnat tarbiyasini shakllantirish natijasida mehnatsevarlik, mustaqillik, har tomonlama qiziqishlarini kengaytirishga, berilgan vazifa va topshiriqlarni o'z vaqtida ma'sulyat bilan bajarish shu bilan bir qatorda burch tuyg'usi kabi axloqiy fazilatlari rivojlanib boradi. Mehnat qilish natijasida bolalarni jismoniy va aqliy rivojlanishi faollashadi. Maktabgacha yoshdag'i bolalar o'zlarining mehnatlari, mehnatlari natijasi kimgadir zarurligi, kimgadir yoqimli ekanligini tushunadilar bu esa mehnat va mehnatsevarlik istagini yanada jo'shqinlantiradi. Bolalarni muntazam ravishda mehnat faoliyatiga jalgan qilish, ularda doimiy ravishda mehnat odatini shakllantirish imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat albatta tarbiyachi nazorati ostida keyin esa mustaqil ravishda, bolalar guruh xonasida turli mehnat foliyatlarini amalga oshirishda ishtirok etadi. Masalan: stullarni tartibga keltirish, qurilish materiallari va o'yinchoqlarni yuvish, qo'g'irchoq kiyimlarini yuvish, gullarga suv berish, faoliyatlarni tashkil etish uchun materiallarni tayyorlash, kiyim joyvonidagi kiyimlarini tartib bilan joylashtirish, aynan 4-5 yoshlaridan boshlab ertalabki nonushta, tushlik va kechki ovqatlar tayyorlanish vaqtida navbatchilik ishlarini amalga oshirish kabi jarayonlarda ishtirok etadi. Bu jarayonda bolaning shaxsiyati va jamoaviy munosabatlari, tengdoshlari bilan do'stona munosabatlar shakllanib boradi. Shu bilan bir qatorda tarbiyalanuvchilar tarbiyachilarga ham yordam berishadi. Mehnatni ta'lim tashkilotiga shakllantrib borish bilan birga oilada ham bu jarayonni bolaning ota-onasi, opa-ukalari bilan birgalikda olib borilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Mehnat ta'limini nafaqat ta'lim tashkilotida balki uyda ham amalga oshirish kerak. Uyda mehnat ta'limini amalga oshirish uchun bir nechta tavsiyalarga e'tibor bermoq lozim ya'ni bolangiz sizga yordam berishini taqiqlamang, uy vazifasini o'zin orqali bajartiring, ba'zi narsalarni qilish uchun bolangizga ishoning, bolaga har bir ish juda muhimligini uqtiring,

farzandingizga nimani xohlayotganingizni tushuntiring, bolaning uy atrofidagi vazifalarini belgilang, eng muhimi, bolani maqtashni va ota-onas farzand uchun doimo o'rnak ekanligini unutmang.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, bolalarning shaxsiy mehnatini mehnatga singdirishning eng muhim vositasi deb hisoblash kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., Agzamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.
2. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni. 2013y. Darslik.
3. S.B.Sanayeva, Sh.N.Haydarova "Maktabgacha ta'lismi va tarbiyani tashkil etish". Darslik. T-2023 yil
4. G.N. Ibragimova, D.A. Choriyeva Maktabgacha ta'limga pedagogik diagnostika T.:2022
5. MTV "Takomillashtirilgan Ilk qadam Davlat o'quv Dasturi.T.: 2022.
6. "Ilm yo'li" variantiv dasturi 2019 -yil 20 -sentyabr
7. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. Darslik. Sanoqulov X
8. Maktabgacha yoshdagi bolalarni mehnat ta'limi shakllari va usullari. Timonova L.M
1. Kubayeva M. B. IMPLEMENTATION OF VISUAL-DIDACTIC GAMES IN ECOLOGICAL EDUCATION OF STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. –2022. –T. 3. – No. 01. –C. 1-4.13.
2. Кубаева М. Visual technologies based on the principles of demonstration is the foundation for pre-schoolers" education //in Library. –2022. –T. 22. – No. 2. –C. 189-200.
3. Кубаева М. Ekologiktarbiya berishda vizual texnologiyalardan foydalanish //in Library. –2022. –T. 22. –No. 1. –C. 8-11.
4. Кубаева М. Секреты пробуждения любви к природе //inLibrary. –2021. – T. 21. –No. 2. –C. 51-53.
5. Kubaeva M. B. Q. THE USE OF VISUAL TECHNOLOGIES OF EDUCATION IN ECOLOGICAL EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS. – 2021. – T. 2. – №. 06. – C. 6-10.
6. М Кубаева Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda vizual texnologiyalarning o'rni // in Library 2021 (1), 102-105
7. М Кубаева Важность экосистемного образования для дошкольников// in Library 2022 (4), 921-926